



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 DEKABR  
**№35**

CONFERENCE.uz



**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”  
15-ҚИСМ**

---

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»  
ЧАСТЬ-15**

---

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF  
UZBEKISTAN»  
PART-15**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]**

**“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари”** мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағищланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**МУСИҚА ВА ҲАЁТ**

<b>1. Otaqulova Gulzoda Odilovna</b>	
MUSIQA DARSLARIDA DOSTONCHILIK SAN'ATI .....	7
<b>2. Курбонова Муслима, Б.В.Шамахмудова</b>	
ХОР САНЪАТИНИНГ ЁШ ХОРМЕЙСТЕР ОЛИМЛАРИДАН .....	9
<b>3. Matchanova Laylo Xasanovna</b>	
MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA MUSIQIY HIS TUYG'ULARNI SHAKLLANTIRISH .....	11
<b>4. Muxamedova Dilorom Turobovna</b>	
XALQ OG'ZAKI IJODI – SO'Z SAN'ATI.....	13
<b>5. Rahmonova Sadoqat Jonibek qizi</b>	
BOTIR ZOKIROV O'ZBEK ESTRADASINING ASOSCHISI .....	14
<b>6. Yaqubboyeva Tabassum Otaxon qizi</b>	
MUSIQA MADANIYATI DARSLARIGA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ ETISH .....	15



## МУСИҚА ВА ҲАЁТ

### MUSIQA DARSLARIDA DOSTONCHILIK SAN`ATI

Otaqulova Gulzoda Odilovna  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktab  
Musiqa madaniyati fani o`qituvchisi  
Telefon: +998 90 501 65 30

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dostonchilik san`ati va uning paydo bo`lishi, dostonlarning baxshilar tomonidan ijro etilishi, kuylash payti, xalq kundalik turmush tarzida, bayram-u to`y-tomoshalarida muhim o`rin tutib kelishi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** doston, baxshi, xalq og`zaki ijodi, folklor, do`mbira, qo`schiq.

Doston abadiy-musiqiy asardir. Uning tarkibida nasriy va she`riy ohang qismlari bo`lib, ular mazmunan o`zaro mushtarak bo`ladi. Surxandaryo – Qashqadaryo doston ijrochilarini shoir yoki baxshi deb yuritadilar. Baxshilar san`atida so`z ustasi, qo`schiq kuylovchisi va soz (do`mbira) cholg`uchisi birlashgan bo`ladi. Binobarin, baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini mahorat bilan badiiy so`zlab hikoya etsalar, she`riy bo`laklarini qo`schiq shaklida maxsus ichki (“bo`g`iq”) ovoz bilan kuylaydilar va bunda do`mbira sozidan jo`rnavoz sifatida foydalanadilar.

Dostonlarni ijro etish mavsumi asosan kech kuzda, qishloq ahli dehqonchilik bilan bog`liq yig`im-terim ishlarini tugatgandan so`ng boshlanib, to erta bahorga qadar davom etadi. Odatda, baxshilar mahalliy aholi tomonidan maxsus uyushtirilgan dostonchilik kechalarini o`tkazish uchun qishloq xonadonlaridan biriga taklif etilgan. Bu xonadonga mahalla ahli, qo`ni-qo`snilat ham yig`ilishib, baxshining doston ijrolarini tinglash. Bunday kechalar bir necha kungacha davom etishi mumkin bo`lgan. Bundan tashqari, baxshilarni oilaviy bayram, to`y marosimlari va boshqa tantanalarni o`tkazishga ham taklif etganlar.

Dostonlarni yuklash tartib-qoidalari ko`ra, avvalo, termalar aytildi. Terma biror bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanadigan aytim bo`lib, bunda baxshi o`z bisotida bor dostonlarni qisqacha ta`riflaydi va shu tariqa tinglovchilarga qarata “Qay dostonni aytayin”, deb murojaat etadi. Tinglovchilar tanlovi, xohish-ixtiyori ham sabab bo`lib, baxshi o`z bisotidan bir dostonni kuylashni boshlaydi.

Buxoro – Samarqand musiqa uslubi deganda, Buxoro va Samarqand shaharlari va viloyatlari hududlarida qaror topgan musiqiy an`analar tushuniladi. Diyormizning qadimiy madaniyat maskanlari bo`lmish bu vohalarda xalq qo`schiqlari, ashulalari, cholg`u kuylari, qarsak o`yin – aytimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san`ati va maqom namunalari keng o`rin tutadi.

Mazkur uslubning o`ziga xos jahatlaridan biri – ikki tillilik, ya`ni o`zbek va tojik tillari an`anasining namoyon bo`lishidir. Bu holat ushbu sarhadda yashab, faoliyat ko`rsatgan ko`pgina shoirlar, jumladan, Mujrim Obid, Abdullo Mulham Buxoriy, Fitrati Zardo`zi Samarqandiy, Muznib Shavkatiy Kattaqo`rg`oniyalar ijodida, shuningdek, ikki tilde ijro etib kelinayotgan o`zbek va tojik xalqlarning yuksak mumtoz musiqa namunasi bo`lgan Shashmaqom (Buxoro maqomlari) turkumida o`z aksini topgan.

Ikki tillilik an`anasi xalq musiqasida o`zgacha shakllarda aks etadi. Chunonchi, ayrim xalq qo`schiqlarini ayni vaqtning o`zida ham o`zbek, ham tojik tillarida kuylash mumkin. Odatda, qo`schiqning bandlari o`zbek tilida, naqarotlari esa tojik tilida, ba`zan aksincha ham bo`ladi. Bundan tashqari, ayrim xalq qo`schiqlarini o`zbek yoki tojik tillarida kuylash imkonи mavjuddir. Shuningdek, faqat bir tilda – yo o`zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo`schiqlari ham uchraydi.

Xalq kundalik turmush tarzida, bayram-u to`y-tomoshalarida musiqa muhim o`rin tutib keladi.



Jumladam, bahor mavsumi bilan bog'liq "Guli surx" xalq marosimi tantanalarida qo'shiqlar aytilgan, "Qatraq o'yin", "Zang o'yin" kabi buxorocha raqsga tushilgan.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. To'xliyev, B. Karimov. Adabiyot. 10-sinf darsligi. Toshkent. 2019-yil.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent. 2000-yil.



## ХОР САНЬАТИНИНГ ЁШ ХОРМЕЙСТЕР ОЛИМЛАРИДАН

**Қурбонова Муслима**

Ўзбекистон давлат консерваторияси

«Академик ижрочилик» факультети

«Академик хор дирижёрги»

Кафедрасининг 3 курс талабаси

Илмий раҳбар:

**Профессор.Б.В.Шамахмудова.**

Тел: (90) 924-97-19

[kurbanovamuslima61@gmail.com](mailto:kurbanovamuslima61@gmail.com)

**Аннотация.** Ушбу мақола хор санъатига ўз ҳиссасини қўшиб келаётган ёш раҳбар Ўқтам Ибрагимович Шокаримов ҳакида маълумот беради. Уларнинг инсон ҳаётидаги ўрни ва ёш ўсаётган ёшлар мусиқий эстетикасига қўшадиган ҳиссаси ҳакидадир.

**Калит созлар:** Мусиқа, хор, хормейстер, санъат.

Умр йулларини санъат соҳасига бағишлиб мусиқа оҳангининг мислсиз умоннида ижод қилиб келаётган ёш олим, Ўзбекистон давлат консерваториясининг катта ўқитувчиси, «Булбулча болалар ва рақс ансамбли» қошидаги «Ёшлар хор жамоаси» хормейстери билан илиқ сухбат курад эканмиз санъат йўлини танлаган инсон борки уни нони қаттиклигини таъкидлашади. Хаёт сўқмокларини ўнқир- чўнқир паст баландларига қарамасдан, йўлнинг машшақатиу заҳматига жавоб қайтариб келаётган Ўқтам Ибрагимович. Болалигидан мусиқага қўйган муҳаббати, мурғак қалбида тошиб чиққан истеъоди, оиласдаги муҳити ва устозларининг қўллаб қувватлаганлиги катта ахамиятга эга. Шу ўринда бобоси, буюк устоз, Шермат Ёрматовни алоҳида таъкидлаб берди.

Хормейстер бўлиб шакланишимда дейди Ўқтам Ибрагимович: талабалик кезларим консерватория қошида устоз Шермат Ёрматовнинг ўсмиirlар ҳаваскор хор жамоаси шаклланган эди. Унда бевосита қатнашиб, хор асарларини қуйлаб, хор партияларини тарқатиб, хормейстерлик ишига ёрдамлашиб, болалар қўшиқчилиги ҳакидаги китобларни ўқиб юрар эдим . Бир кун Мадина Халитова магистратурани битирган ёш хормейстеримиз сабабли ишга келаолмади. Устоз Шермат Ёрматов мени чақиририб, қўлимга дарс ўтадигон хона қалитини бериб шу орқали хорни машқлар орқали созлаб туришимни айтдилар. Хор жамоасида ҳар хил ёшли болалар, чолғучилар, айникса доирачилар кўп эди, усулни ҳис қилишсада қуйлаш қўнимаси унчалик яхши ривожланмаган эди. Жамоада успириналар, кичик ёшдан тортиб катта ёшгача қуйловчилар бор эди. Шу кундан бошлаб, илк бор раҳбарлик ҳиссини туйганман, албатта биринчи бор хор билан ёндашиш қийин кечган. Хор артистларига авваламбор тўғри ўтиришни, шовқин қилмаслик интизомини ўргатганман. Товушларни соф интонацияси устида қайта- қайта ишладим. Яхши натижага эришмагунча уларни анча қийнаган эдим. Ўзимни мактаб пайтимдан олган билимларимни, ўрганганларимни, иш жараённида қўллашга ҳаракат қилганман ва ўз талабларимни бажаришга уннадим. Хор дарсидан кейин ҳамма хор артистлари Устоз Шермат Ёрматов олдиларига кириб, янги хормейстеримиз бизлардан жуда кўп нарсалар талаб қилди деб мени устимдан арз қилишган экан. Шунданг сўнг, Устоз мени ёнларига чақириб шундай деганлар: «Болам сен ўқиб юрган йўлдаги, сен таҳсил олаётган йўлдаги талabalар эмас, булар ҳаваскорлар буларнинг вазифаси ва мақсади - хор орқали ўз тарбиясини тўғрилаш ва мусиқага қизиқтиришdir. Агар интизоми яхши бўлмаса эътибор берма дарсни охирида гаплашгин. Ҳар бир хор хонандаси билан алоҳида йондашишни ўрган, уларни кайфиятига хам эътибор бер, қуйлайотганда қийланайотган ўқувчилар билан қайта қайта ишла. Ўспириналарга битта гап кам иккитаси ошиқча бўлади. Улар билан дўстлашишни ва яқин бўлишни ўргатдилар. Ҳаваскор хор жамоаси аъзоларини тошиб турган шижаотини юксалтириш йўлларини бевосита хормейстерга боғлиқлигини менга айтиб анча катта билим берганлар. Устозим Наира Соҳибовна Шарафиева ҳам «Хорни олдига чиқдингми? «Сен раҳбарсан, ўзинг хоҳлаётган нарсани талаб қил « деб кўп таъкидлар эдилар.

Устозларимнинг ўгитлари, берган билимлари туфайли шу даражага келганман дейди ёш олим.



Ўқтам Иброгимович Ўзбекистон давлат филармонияси қошидаги «Булбулча» болалар ва рақс ансамбли «Ёшлар хорига бош хормейстрлик фаолиятини жон куярлик билан бир неча йиллар давомида олиб борадилар. Уларнинг ишларини кўзатар эканмиз биз ёшлар ўзимиз учун катта кўнижмалар ва катта дарс оламиз десак ҳам бўлади. Ишга шижаот билан ёндашуви, хорга бўлган муносабати ва ўзгача қизикарли услублар билан дарсни ташкил қилишлиги, бошқа хор жамоаларидан ажралиб туради. Ҳамиша ҳавас билан яшашни талабаларига ва хор ходимларига уқтириб келади. Хор жамоасини бир оила сифатида шакллантиришга харакат қилиб келмоқда ва бу анъана хозиргacha ҳам давом этиб келмоқда.

Ўз жамоасини яратишда хор аъзоларига алоҳида эътибор берган холда ишга қабул қиласди. Мусиқий қобилиягини текшириб, синовдан ўтказиб, хор жамоаси аъзоси иш туфайли эмас балки ижодий томондан, юрагида мусиқага қизикиши бўлган ходимларни қабул қилишни афзал кўрадилар. Тавсия қилингандарни эмас балким ўзи текшириб олишни маъкул кўради. Авваламбор, хор жамоаси аъзоларининг интизомига, қанчалик асарларни ўзлаштириб олганига катта аҳамият беради.

Хаётдаги шиори «Бирни кўриб шукур қил бирни кўриб фикр қил» Яъни, улар хар бир ишларни кузатиш орқали, ютуқларни, натижасини. Сабабини, қандай қилиб эришганини кузатиб, кўзатишлар орқали ўзлари учун анча катта кўнижма олганлари хақида талабаларига ҳаётида ҳамиша яхши нарсаларни ҳавас қилишга, хасад ёмонлигини, инсони қалбини чиритадигон хислат эканлигини уқтириб келади. Шу вақтгача устозлари бўладими, тенгдошларими, улардан олдин битирғанларми, ёши-кичикларми ҳар бир инсонларни ютуғини кўриб, ҳавас қилишини чунки ўша инсонлар хор жамоаси касбига ўз меҳнатлари билан катта ҳисса қўшиб келганликларини илиқ сухбат давомида сўзлаб берди.

Репертуар танлашда ҳам, ҳалқ қабул қиладиган ва бевосита хор имкониятидан келиб чиқкан холда асар танлайди. Шу йиллар давомида «Ёшлар хор жамоаси» билан кўплаб концертлар беришди. 2019 йил В. А. Моцартнинг 12 кисмли жаҳон классик дурдонлари бўлмиш «Реквием» асарини ўз жамоаси билан ижро этишди, бу албатта таҳсинга лойиқ бундай йирик асарни хали Ўзбекистонда хечқайси ҳаваскор хор жамоалари куйламаган эди, бевосита ҳалқга манзур келди ва илиқ кутиб олишди. Ундан ташқари Карл Орф «Кармина Бурана» кантатасининг барча қисмларини оркестр билан муккамал даражада ижро қилишди. Ҳамид Олимжон хотирасига бағишлиб ўзининг хор учун янги асарларидан концертлар берди. Хозирги кунда ҳалқни хорга бўлган муҳҳабатини ошириш мақсадида флешмоблар қилиб ёшлар жамоаси ҳалқ орасида концертлар ўтказиб келишмоқда. Яқинда Нукус шаҳрида бўлиб ўткан фестивалда ўзларининг хор учун қайта ишланган ҳалқ қўшиклари билан ўз истъедодларини мувоффақиятли намоён қилиб келдилар..

Устоз шу йиллар давомида илм соҳасида ҳам самарали меҳнат қилиб докторлик диссертациясининг мавзуси « Ўзбекстонда болалар ва ёшлар хор ижрочилигининг муаммолари ва тенденциялари» ҳақида бўлган апробацияси бўйича иш олиб бормоқда. Шу диссертацияси бўйича 2021йил 14 апрель куни Туркистон санъат саройида «Бу юртнинг ёшлари» деб номланган хор ижрочилиги турлари бўйича концерт уюштирилди. Ёшлар жамоаси ва «Дурдона» ансамбли томонидан фольклёр асарлар ижроилар томонидан қандай ижро бўлишини яъни Дурдона ансамбли томонидан фольклёр асарлар қандай жаранглайди ва ёш хор ижроилир томонидан қандай намоён бўлишини кўрсатиб берди. Ўқтам Иброгимович томонидан кўплаб илмий мақолалар чоп этилди, шу жумладан» Хор театри нима»деган мақоласи чиқди.

Уларнинг олдига қўйган мақсадлари жуда кўп, улардан бири хор жамоалар ассоциациясини тузиб, барча хормейстерларни бирлаштириш ва буюк устоз , композитор, машҳур хормейстер Шермат Ёрматов яратган мактабни яна ҳам гуллаб яшнаб, равнақ топиши учун бор имкониятларини сарфлашни олдига катта вазифа қилиб қўйганлар. Устозни профессионал даражадаги қобиляти, , меҳнатсеварлик, самимийлик, олийжаноблик, камтаринлик, инсонийлик фазилатлари ҳамиша ёр бўлишликларини, ҳар қандай вазиятда ҳам шуҳрат «юки « ижодига рахна солмаслигини, ҳамиша юксалиб, улуғланиб, мартабалари ошишига тилақдошмиз.

Фойданилган адабиётлар.

1.Шокаримов. Ў. И. Хор театр журнали 5-сони 2021й.



## MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA MUSIQIY HIS TUYG'ULARNI SHAKLLANTIRISH

**Matchanova Laylo Xasanovna**

Urganch tuman 19-sون  
умумий о’рта та’лим мактаби

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Musiqa darslarida o’quvchilarning musiqiy his-tuyg’ularini rivojlantirish haqida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** Kuy va qo’shiqlarning , ohangdor va intanatsion , qo’shiq, she’r , musiqiy did

Musiqa darslarida o’quvchilarning musiqiy his-tuyg’ularini rivojlantirishda tinglash va kuylash uchun berilgan qo’shiq va kuylarning mazmunini, xarakterini tahlil qilishni o’quvchilarga dastlabki mashg’ulotlaridayoq o’rgatib borish, keyinchalik ularda turli shakldagi musiqiy asarlar mazmunini ongli ravishda anglab, idrok etishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa darslarida musiqa tinglash va kuylash faoliyatlarini to’g’ri tashkil qilinishi o’quvchilarning musiqiy didini shakllantirishda u orqali musiqiy his-tuyg’ularini rivojlanishida ijobjiy samara beradi. Ayniqsa, musiqa tinglash hamda kuyylanadigan qo’shiqlarning umumiy jihatdan ko’rinadigan o’ziga xos xususiyati kuy, musiqa, qo’shiqning matni, ijrochilik mahorati uning insonga kompleks ta’sir qilishini ta’minlaydi. Ijro etiladigan qo’shiq, tinglanadigan kuy, uning ohangdor va intanatsion ifodalaniishi, qo’shiqning she’riy asar sifatidagi g’oyaviy mazmuni va badiiy shakli nihoyat, musiqa hamda qo’shiqni yaxshi ijro etishning mujassam qotishmasidir. Kuy va qo’shiqlarning tuzilish elementlari o’quvchi shaxsining turli sohalariga: ongi, irodasi, sezgisi, musiqiy idrokiga o’z holicha ta’sir ko’rsatsa ham, ijro etilayotgan qo’shiq va musiqaning jo’rligi yaxlit birgalikda idrok qilinadi. Ko’pchilik san’atning kuchi va o’quvchi yoshlarga ta’sirining xarakteri mazkur elementlarning har biri bilan bog’liq provard natijada ularning ketma-ketligi bilan belgilanadi va bu birlik yangrayotgan kuy va qo’shiqni idrok etayotgan kishiga yaxlit ta’sirini vujudga keltiradi. Binobarin, qo’shiqda ham kuyida ham uyg’unlik uslub, ta’sirchanlik, ifodalash vositalarining har xil turlari bo’lishi mumkin. Kuy va qo’shiqlar faqat quvonchli, lirik, ko’tarinki hissiyotlarni uyg’otmaydi. U g’amginlik, g’azablanish holatlarini ham vujudaga keltiradi. Boshqacha aytganda, qo’shiq ham kuy ham faqat ijobjiy kayfiyatlarini emas, balki salbiy kayfiyatlarini ham paydo qiladi. Bularning hammasi hayotning turli tomonlarini – quvonch, tashvish, orzu-umid, ayriliq va hokazolarni aks ettiradigan qo’shiqning mazmuniga bog’liq. Endi biz o’quvchilarning musiqiy his-tuyg’ularini rivojlanishda asosiy omil hisoblangan musiqani qabul etishni tashkil etish muammolarini yoritishga harakat qilamiz. Musiqa darsi jarayonining asosiy omillari sifatida quyidagilar mayjud: musiqani eshitib zavqlanish, qo’shiq ijro etish, musiqa savodiga doir xususiyatlarini anglab olish, raqsga tushish va musiqa ostida turli harakatlarni bajarish, chapak chalish va cholg’u asboblari ijrosini, maqsadini idrok etib borishdan iborat. Musiqiy tarbiya vazifalarini bajarish uni amalga oshirish uchun o’quvchilarni tinglashga o’rgatish kerak. Aksariyat ko’pgina o’quvchilar jiddiy musiqani tinglashmaydi, chunki uni tushunmaydi. Tushunish uchun esa tayyorgarlik talab etiladi. O’quvchilarni musiqadagi yuksak badiyligini tanishtirish lozim. Bunday asarlar o’quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi va musiqiy didni tarbiyalaydi. Ko’p sonli savodxon tinglovchilarni tayyorlash uchun musiqa shaydolarini bolaligidan musiqani tushunishga va uni sevishga o’rgatish lozim. Musiqani sevish- bu musiqani doim tinglash demakdir. Musiqani tushunish bu – his etish, tahlil qilish, bilish demakdir. Avvalambor, o’quvchilarni tinch va boshidan oxirigacha asarni tinglashga o’rgatishimiz kerak. Eng muhimi tinglanayotgan asar o’quvchilar yoshiga mos va esda qoladigan bo’lishi lozimdir. Musiqa tinglashda o’qituvchi yoshlar oldiga quyidagi asosiy vazifalarini qo’yish tavsiya etiladi: .

- musiqa san’atiga havas uyg’otish;
- musiqa tinglash va amaliy vositalar orqali qiziqtirish asnosida bolalarda musiqiy ehtiyoj kuchaytirish;
- o’quvchilarda badiiy taassurotlarni to’plab borish (savol-javob, suhbatlar orqali),
  1. Tinglanayotgan asarni oddiy musiqiy pedagogik tahlil etish,
  2. Tinglashda oddiy musiqa terminlarini va atamalrini qo’llab borish,
  3. Kuuning oddiy tuzilishi, uning ifoda vositalarini ritmik tuzilishlariga qarab chapak chalish



va kuylashga o'rgatish.

4. Musiqa ijodkorlari, ijrochilar turlari cholg'u asboblari bilan tanishtirish.
1. Musiqiy janrlarni bilish (raqs, balet, opera va boshqalar),
2. Asarning tuzilishini bilish (bandli, ikki qisqli yoki uch qisqli),
3. Kompozitorlarning hayoti va ijodini bilish,
4. Musiqiy nutqini eklementlarini bilish (xarakteri, tempi, dinamikasi, musiqiy ifoda vositalari),
5. Musiqiy estetik ma'lumotlarni bilish (tinglash madaniyati).

Sinfda o'rganiladigan har bir qo'shiq ifodali, yuksak badiiy, o'quvchilar tasvvuriga chuqur ta'sir qiladigan bo'lishi kerak. Agar qo'shiq o'quvchilarni qiziqtirsa, ularning ongiga emotsiyonal ta'sir etsa, u vaqtida qo'shiq kuylash usullarining sof texnikaviy tomoni ustida olib borildigan ish ularga zerikarli tuyulmaydi. Ko'pincha musiqa madaniyati darsi o'qituvchilari kuylash mashqlarini vaqtini bekorga oladigan narsa deb, unga nazar-pisand qilmaydilar, qo'shiq ustida olib boriladigan ishning o'zi mакtab o'quvchilariga etarli deb hisoblaydilar. Bunday qarashlar bilan ishlab bo'lmaydi, chunki bu metod qo'llanganda kuylash malakalari o'quvchilar tomonidan ancha kech o'zlashtiriladi. Musiqa o'qituvchisi maxsus mashqlarni tanlashda qancha ijodkor bo'lsa, u o'z maqsadiga shuncha tezroq erishadi. O'quvchilarning musiqiy histuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda musiqa tinglash va kuylash faoliyatları bilan bir qatorda o'quvchilar tomonidan tashkil etilgan turli madaniy tadbirlerda, ko'rik – tanlovlarda mavsumiy bayram dasturlari bilan ishtiroy etishlari ham alohidaligi o'rganib chiqildi. Xullas, musiqa faoliyatlarining barchasi o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilsagina o'quvchilarda musiqiy his-tuyg'ularni rivojlanish va takomillashib borishi ijobiy samara berishi tadqiqotimiz natijasida o'z tasdig'ini topdi. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning psixologik-fiziologik xarakterlariga oid hamda yosh xususiyatlari mos musiqiy asarlarni o'rganishm tahlil qilish va ta'lif jarayoniga samarali qo'llash musiqa madaniyati darslarini sifat va samaradorligini oshirishda o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirishda ijobiy samara beradi. Bu esa musiqa madaniyati dars faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishda musiqa asarlarini eshitish, tinglash, kuylash hamda oddiy tahlil qila bilish katta ahamiyatga ega.



## XALQ OG’ZAKI IJODI – SO‘Z SAN’ATI

**Muxamedova Dilorom Turobovna,**  
Navoiy shahar 4-AFCHO’IM musiqa fani o‘qituvchisi

Inson qadimdan atrof muhitda ro‘y berayotgan voqealari hodisalarga o‘z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlar, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik his-tuyg’ularni so‘zlar, so‘z yig’indisi, raqlar ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o‘zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o‘simgilklar, tog’lar, suvlarning paydo bo‘lishini izohlovchi to‘qima hikoyalar o‘ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo’shiqlarini to‘qiydilar. Qabila-urug’ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g’aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo‘ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo‘lib yashayotgan aholi o‘rtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda biz ularni “xalq og’zaki ijodi” deb atashga odatlanganmiz.

Ota-bobolarimizning aytmoqchi bo‘lgan pand-nasihatlari, el e’zozlagan odam bo‘lishning talab-qoidalari, Alp Erto‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz san’at darajasiga ko‘tarilgan so‘z tizimlaridan iborat maqol, qo’shiq, ertak, doston, bolalarga bag’ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og’zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo‘lgan. Xalq og’zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, uning ma’nosи “xalq donoligi” degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san’at namunalari tushuniladi. Me’morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, og’zaki adabiyot namunalari - hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan. Har bir san’at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o‘zi tanlagan turni “folklor” deb atayveradi.

Folklor so‘z san’atining asosini tashkil etadi. Ayni choqda folklor asarları hamisha jonli ijro bilan aloqada bo‘ladi. Shuning uchun ertak, qo’shiq, doston va boshqa bir qator og’zaki ijod asarları ijro davomida sinkretik san’at namunasi hisoblanadi. Sinkretik so‘zi birlashmoq, qorishmoq, aralashmoq tushunchasini bildiradi.

Doston kuylanganda musiqa, so‘z, sahna san’atlari qorishib uyg’unlashadi, ya’ni baxshi do‘mbira, soz chalib xonanda sifatida yoqimli ovozda doston aytadi. Doston esa matndan - so‘zlardan iborat bo‘ladi, musiqa asbobida ijro etilgani uchun baxshi xonandalik, sozandalik qiladi. Ayni paytda dostonidagi voqealarni tovush tovlanishi

- sahna san’ati - aktyorlik mahorati bilan hikoya qiladi. Shuningdek, qo’shiqlar yoki xalq dramasiga oid asarlar ijrosida raqsga tushish, sahna harakatlari amalga oshiriladi. Binobarin, ijro etilayotgan asarning asosini so‘z tashkil qilgani bilan uning tinglovchilarga namoyish etilishini boshqa san’at turlari bilan aloqasiz tasavvur qila olmaymiz. Xullas, bugungi kunda murakkablashib ketgan san’at turlarining ko‘philigi dastlabki bosqichda xalq og’zaki ijodi asarlarini ijro etish jarayonida paydo bo‘lgan, shakllangan, rivoj topgan va keyinchalik o‘ziga xos san’at turiga aylangan bo‘lishi mumkin desak, u qadar katta xatoga yo‘l qo‘ymaymiz. Umumta’lim maktablarida ma’naviy merosimiz hisoblangan xalq og’zaki ijodi namunalarini qanchalik fidoiylik va qunt bilan o‘rgata olsak, albatta ma’naviy quroqla ega bo‘lamiz. O‘quvchilar ham ertaga maktab partasida o‘qib o‘rgangan xalqimizning nodir namunalarida aks ettirilgan ezgulik, mehr oqibat, tuyg’ularini hayotlari davomida qo’llaydilar. Shuningdek, yurtimizning asl va fidoyi farzandlari safiga qo’shiladilar.




## BOTIR ZOKIROV O'ZBEK ESTRADASINING ASOSCHISI

**Rahmonova Sadoqat Jonibek qizi**  
Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi  
19-maktabning musiqa fani o'qituvchisi  
Tel:+998934478808

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek madaniyati va san'atiga ulkan hissa qo'shgan Botir Zokirovning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Xalq artisti, repertuar, rejisyor, tasviriy san'at, ansambl.



O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov 1936-yil 26-aprelda tavallud topgan. Uning ijrosidagi qo'shiqlar xalqning qalbidan chuqur joy olgan, qachon yangramasini kishiga o'zgacha xush kayfiyat bag'ishlaydi.

Botir Zokirov 1956-yil "Yoshlik" yoshlari ansamblini tashkil etib, katta shuhurat qozongan edi. U kuylagan opera ariyalari, o'zbek xalq qo'shiqlari, xorij shlyagerlari o'z davrida dunyo bo'ylab tarqaldi. Xonandaning repertuaridan milliy qo'shiqlar bilan bir qatorda italyan, fransuz, ispan, rus, yunon tilidagi qo'shiqlar ham joy olgan.

O'zbek estrada san'atining rivoji Botir Zokirov ijodi bilan bog'liqligini ta'kidlash o'rini. Shuningdek, B.Zokirov tasviriy san'at, rejissor san'atlariда ham iqtidorli bo'lgan.

Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati institutining rejissyorlik fakulteti (1958—62)da ta'lim olgan. "Yoshlik" ansamblini (1957), O'zbek davlat estrada orkestri (1958—70) yak-kaxon xonandasini. Toshkent myuzikxollining tashkilotchisi, yakkaxoni va badiiy rahbari (1972—78). 1978-yildan "O'zbekkonsert"ning yakkaxon xonandasini. B.Z. o'ta ta'sirchan tembrli, shirador ovozga ega bo'lgan. Ijro etgan qo'shiklarining aksariyatini tugal va teran lirik-dramatik asar darajasiga ko'tara olgan. Repertuaridagi qator qo'shiqlar kompozitorlar tomonidan B. 3. hamkorligida, uning ovoziga mo'ljallab yaratilgan. Ijodida o'zbek kompozitorlarining romans va qo'shiqlari muhim o'rinn tutadi: M. Burhonov — "Maftun bo'ldim", "Namedonam, chi nom dorad"; I. Akbarov — "Yor kel", "Ra'no", "Gazli", "Seni eslayman"; Sayfi Jalil — "Majnun monologi", "Kechalar yulduz sanab" va boshqa Shuningdek, estrada uslubida kayta ishlangan hind ("Nechun xayolga cho'mding?", "Dil orzusi", "Meychale"), eron ("Maro bebus", "Ayriliq qo'shig'i"), misr ("Arabcha tango", "Uyqum o'g'risi"), suriya ("O'tmishimga yig'layman"), livan ("Go'zal qiz"), meksikan ("Alvido muhabbat"), italyan ("Yashasin muhabbat") qo'shikdarini, chet el mualliflaridan E. Masias, J. Brel (Fransiya), Choudhuri, R. Shankar (Hindiston), Fatxulla Sulaymon (Suriya), Farid al-Atrash (Misr), aka-uka Rahboniylar (Livan), D. Ristich (Yugoslaviya) asarlari original (har birini o'z tilida) ijro etgan. B. Z.ning rassom sifatida yaratgan "Avtoportret", "Saraton", "Gumbazlar", "Bolalik ko'chasi", "Chor minor" kabi asarlari ma'lum. Bir qancha hikoya, ocherk va she'rler, shuningdek, "So'g'd elining qoploni" operasi (Ik. Akbarov)ning librettosini yozgan. "Kichik shahzoda" (A. de Sent-Ekzyuperi), "Soya" (Ye. Shvars) asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Xonanda 1985-yil 23-yanvarda olamdan o'tgan. Botir Zokirov mustaqillik yillarda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org) sayti.
2. [www.google.coz](http://www.google.coz) qidiruv tizimi



MUSIQA MADANIYATI DARSLARIGA ILG‘OR PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH

**Yaqubboyeva Tabassum Otaxon qizi**

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 21-sod maktab  
Musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida musiqa darslarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar, musiqa fani o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar va ilg‘or pedagogik texnologiyalar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Musiqa darsi, Raqs + tabassum, Pantomima uslubi, Marhamat davom ettir, “Bilag‘onlar ko‘chasi” uslubi, Aqliy hujum.

Musiqiy ta’lim yo’nalishida fanlar integrasiyasi shunday ko’rinish kasb etadiki har bir fan o’z navbatida ikkinchi, uchinchi va h.k. barcha musiqiy, amaliy – nazariy bilimlar jamlanmasini o’zida mujassamlashtirgan holda kerakli ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishni taqozo etadi. Masalan cholg‘u asbobida ijrochilik mahoratini egallah uchun musiqa nazariyasi (musiqani ifoda vositalari), solfedjio, (nota o‘qish) musiqa asarlari tahlilini, xor va xorshunoslik fanida esa vokal kuylash, nazariy savodxonlik, dirijyorlik, xor aranjirovkasi, asarlar tahlili bo‘yicha ma’lum bilimlar zahirasi talab qilinadi. Shu bois har bir fan o‘qituvchisi o‘zi dars berayotgan fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib talabalarni pedagogik texnologiya faoliyatiga tayyorlab borishi kerak bo’ladi.

Umumta’lim maktablari “musiqa madaniyati” darslarida musiqa ta’limi va tarbiyasini amalgalash oshira borar ekanmiz, o‘qituvchi oldida o‘quvchilarni eng avvalo musiqa san`atiga, o‘zi o‘tayotgan darsga, berilayotgan bilimlar, o‘rganilayotgan kuy – qo’shiqlarga qiziqish va havas uyg‘otish vazifasi turmog‘i lozim. Maktabda, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda qo’shiq aytish, musiqa tinglashga bo`lgan qiziqish va moyillik, asta – sekin yoshlarning musiqa san`atiga bo`lgan ijobiy munosabatlari, qolaversa ehtiyojlarining rivojlanib, shakllanib borishida muhim o‘rin tutadi.

Musiqa darsi o’z tabiatiga ko‘ra ham san`at, ham tarbiya darsidir. Uni rang –barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o‘qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab qiladai. “Bolalarni san`atga o‘rgatish nihoyatda murakkab” – deb ta’kidlaydi taniqli kompozitor – pedagog D.B.Kabalevskiy, - hamma murakkabligi shundaki, ularni emotsiyonal tarzda qiziqtirmay turib chinakam san`atga o‘rgatish mutlaqo mumkin emas.

Hozirgai kunda yangi pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tadbiq etishga bo`lgan qiziqish kundan – kunga kuchayib bormoqda. Chunki, pedagogik texnologiya va interfaol metodlar o‘quvchi yoshlarni puxta bilim va malakalarni egallahlarini yengillashtiradi, qulaylik tug`diradi. Shu o‘rinda biz o‘zimizning amaliy tajribamizda qo’llagan ayrim texnologiyalarga qisqacha to’xtalib o‘tamiz.

**Raqs + tabassum.**

Bu texnologiyalardan ko`proq boshlang‘ich sinflarda foydalanish mumkin. Boshlang‘ich sinf darsliklaridan o‘rin olgan “Qari navo”, “Usmoniya”, “Andijon polkasi”, “Dilxiroj” raqs kuylarida qo’llash yaxshi natija beradi. Bunda o`yin – raqsga jalb etilgan o‘quvchilar hohlagan holatda turadilar. O‘qituvchi yoqimli musiqa ostida barcha o‘quvchilarni raqsga taklif etadi.

1. O‘quvchilar erkin raqsga tushadilar. Musiqa tugagach yonida, to`g`risida to`xtagan do`stiga tabassum bilan olqishlovchi so‘z aytishi kerak.

2. Hammaga tanqid qiluvchi yoki ko`ngilni qoldiruvchi so‘z aytish qat’iy man qilinadi. O‘quvchilarga quyidagicha murojaat qilish mumkin: “Sizni raqs tushishingizdan xursand bo`ldim”, “Siz chiroyli raqs tushar ekansiz”, “Sizning raqs usullaringiz menga juda yoqdi” va h.k.

**Pantomima uslubi.**

O‘quvchilar doira shaklida o‘tiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga cholg‘u asboblarining rasmini tarqatadi. O‘quvchilarning vazifasi ushbu cholg‘u asboblarida qanday holatda kuyni ijro etilishini harakatlar bilan ko`rsatishdan iborat. Qolganlar esa kuzatib, qaysi cholgu asbobi ko`rsatilayotganligini topishi kerak. Masalan, rasmida doira surati aks etgan bo`lsa, stulda o‘tirgan holda qo‘l harakati bilan ko`rsatib beradi, karnay, surnay, g’ijjak, rubob, dutor, fortepiano, cholg‘u asboblari mos qo‘l harakatlari bilan tasvirlanadi. 5 – 6 ta o‘quvchining chiqishidan so‘ng muhokama qilinadi.



### **Marhamat davom ettir. (takrorlash darslari uchun).**

Sinf ikki guruhga bo`linadi. Oldingi darslarda o`rgatilgan qo`shtiqlardan birini 1 – guruh boshlab beradi, birinchi kuplet kuyylanadi, 2 – guruh davom ettiradi. Qaysi guruh to`g`ri, aniq davom ettirsa u golib bo`ladi va 2 – qo`shtiqni tanlash huquqiga ega bo`ladi. 3 ta qo`shtiqdan keyin mutloq g`olib aniqlanadi va baholanadi.

### **“Bilag`onlar ko`chasi” uslubi.**

Bu texnologiyada o`quvchilar guruhlarga bo`linadi (4-5 ta ), har bir guruhga bastakorlarning portretlari ko`rsatiladi. O`quvchilar bastakorlarning hayoti, faoliyati, asralari nomlarini aytishadi, asarlaridan ayrim parchalarni kuylab berishadi.

### **Aqliy hujum.**

Darsning qiziqarli bo`lishini ta`minlash maqsadida noan`anaviy ta`lim metodlarining turli xil usullaridan foydalanish mumkin.

1. Nima uchun xalq cholg`u asboblari deyiladi?
2. Xalq cholg`u asboblariga qaysi cholg`ular kiradi?
3. O`lchov nima? U qanday vazifani bajaradi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o`qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent, - O`zbekiston, 1999 – yil.
2. Sharipova G. Musiqa o`qitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil.
3. Musiqa o`qitish metodikasi va maktab repertuari. Fanning o`quv – uslubiy majmuasi. – SamDU, 2011 – yil.
4. Кабалевский. Как рассказывают детям о музыке. Москва, - Просвещение, 1987 – год.
5. Abralova M, Soliyeva D. Musiqa. O`qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008 – yil.

# **“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”**

**(15-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шоҳруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 31.12.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000